



## BASTAKOR VA KOMPOZITOR ATAMASINI BIR-BIRIDAN FARQLASHDAGI KAMCHILIKLAR

**Ruxshona Atkiyoyeva**

*Farg'ona davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti "Musiq ta'limi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan "kompozitor" va "bastakor" atamasini ajratish to'g'risidagi ayrim kamchiliklar haqida fikr va mulohazalar keltiriladi. Qolaversa, ushbu kasb egalarining bir-biridan farqli jihatlari, bu maqomga aynan kimlar tegishli ekanligi va bugungi kunda ushbu kasb egalari uchun qilinayotgan qulayliklar atroflicha ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *kompozitor, bastakor, musannif, mulahhin, ohangsoz, polifonik, monodik*

Nafaqat bugungi kunda, balki, asrlar osha turli qarama-qarshi qarashlarga ega bo'lgan "kompozitor" va "bastakor" atamasining izohli lug'ati turli tortishuvlarga sabab bo'lgan. Ularning farqi nimada? degan savolning tug'ilishi tabiiy hol albatta. Daslab XIV asrda yevropa musiqa san'ati keskin inqiroz (yangilanish)ga yuz tutdi. Buning ta'siri natijasida musiqa yaratuvchi insonlarni "kompozitlar" deb atay boshlashdi. Kompozitor (lot. Compositor- tuzuvchi, ijod etuvchi) - ko'p ovozli asarlar muallifidir. Ushbu atama XIV asrga kelib Italiyada keng tarqalgan. Kompozitorlik kasbi ijodkordan musiqiy-ijodiy qobiliyat bilan birga maxsus (kompozitsiya fani sohasidagi) puxta bilimni ham talab etadi. Kompozitor nota yozuvi yordamida musiqiy asarlarni yaratadi, ular orqali ijod etadi. Yangi, individual badiiy mazmuni ifodalashga harakat qiladi.<sup>1</sup>

Bir fikr o'rtaga tashlanadi - "Ahir bastakorlar ham musiqa yaratadiku?"

Bastakor bu - (fors. bog'lovchi, bastalovchi) an'anaviy, mumtoz musiqa muallifidir. Sharqda u musannif, mulahhin, ohangsoz kabi atamalar bilan tanilgan. Odatda bunday san'atkorlar o'z faoliyatida ijrochi (xonanda, ko'proq sozanda)lik va ijodkorlikni uzviy bog'lagan. Ko'proq bir ovozli asarlar yozishga molik ijodkordir.

Kompozitor va bastakorning bir-biridan farqi nima?

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kompozitor bu - ko'p ovozli asarlar muallifi, bastakor esa bir ovozli (monodik) asarlarni yozishga molik bo'lgan shaxsdir. Shu jihatdan kompozitor, an'anaviy mezonga tayanib, monodiya tizmida ijod etuvchi bastakorlardan farq qiladi.

Dastlab kompozitorlar paydo bo'lganmi, yoki bastakorlar?

Ilmiy manbalarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, Italiyada kompozitorlik ildiz otishidan 200-300 yil avval aynan shu davrda Farobiy va Borbad

<sup>1</sup> B.R.Yakubov. Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti. Ma'ruzalar to'plami.



Morvaziylar bastakorlikni keng targ'ib qila boshlashgan. Bundan ko'rinib turibdiki, bastakorlik ijodiyoti kompozitorlik maqomidan avval shakllanib ulgurgan.

Afsus va nadomatlar bo'lsinki, bugungi kunda ayrim bolalar musiqa va san'at maktablarida bastakor bu kompozitor atamasining o'zbekcha ma'nosi deya singdirilmoqda. Bu esa o'zbek musiqiy-ijodiy lug'atiga putur yettirishdir. Pedagoglar o'zi bilmagan holatda ushbu xatoga qo'l urishi bevosita ko'zga tashlanmoqda. Hattoki, bola kompozitor va bastakorlarga kimlar kirishini ham farqlay olmasligi achinarli hol albatta...

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek bastakorlik ijodiyoti O'rta Sharqda XIV asr boshlarida chuqur ildiz ota boshlagan. Ushbu ildizlar esa Abu Nasr Farobiy va Borbad Marvaziylardir. Oradan vaqt o'tib XX asrda bastakorlik ijodiyoti tubdan yangilana boshladi. Bularga: Ota Jalol Nosirov, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodiqov, I.Ikromov, Nabijon Hasanov, Abduhoshim Ismoilov, Mansur Toshmatov, Komiljon Jabborov, Muhammadjon Mirzayev, Muxtorjon Murtazoyev va boshqa shu kabi bastakorlarni misol qilib olish mumkin.

Kompozitorlarga esa: Muxtor Ashrafiy, Mutal Burxonov, Tolibjon Sodiqov (ham bastakor ham kompozitor), Suleyman Yudakov, Sobir Boboyev, Ikrom Akbarov (ham musiqashunos ham bastakor), Manas Leviyev, Doni Zokirov, Abduhoshim Ismoilov (ham bastakor ham kompozitor), Dilorom Omonulayevalarni aytish mumkin. Kompozitorlar ko'proq simfonik orkestr, orkestr va konsert uchun asarlar yozadi. Ular orasida esa ko'p ovozli (polifonik) asarlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bastakorlar esa o'z asarlarini bevosita xalq kuylari bilan bog'laydi. Bastakorlarning asosiy vazifasi ham aynan xalq kuylarini notalashtirishdan iboratdir.

I.Ikromovning "So'lim" asari bastakorlik ijodining yorqin namunalaridan biridir.



Ko'rish mumkinki, asar bir ovozli (monodik) shaklida yozilgan bo'lib, eshitilishi va ijro yo'li bilan an'anaviy uslubga xosdir. Bunda ijro jarayonida ijrochi istalgan mumtoz musiqiy soz orqali asarni yanada boyitishi, unga qo'shimcha nola va melizmlar berishi ham mumkin.

Kompozitorlik ijodiga esa XXI asrning yosh kompozitorlaridan biri bo'lgan, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining yosh a'zolaridan biri,



hozirda Farg‘ona davlat universitetida o‘z faoliyatini olib borayotgan kompozitor Abduljalil Abdusattorovning “Onajon” asarini misol tariqasida olish mumkin.

The image shows a musical score for the piece "Onajonim" by A. Abdusattorov. The score is written for Soprano, Alto, Tenor, and Piano. It is in 3/4 time and features a polifonic texture. The lyrics are in Uzbek: "Bu osha - yo'ni qash - hi - ni osha - lar - ga ya'ni osha. hana ma-". The score is divided into two systems, with the first system starting at measure 16 and the second system starting at measure 21. The piano part provides a harmonic and rhythmic foundation for the vocal lines.

Yuqorida ko‘rish mumkinki, asar ko‘p ovozli (polifonik) shaklda yozilgan bo‘lib, orkestr ijrosi uchun mo‘ljallangan. Asar nafaqat ijro tomonlama, balki qo‘shiq tomonlama ham polifonik shaklni tasdiqlash hususiyatiga ega. Qo‘shiq partiyasining 3 ovozga bo‘linishi asarni polifoniklik xususiyatini yana boyitib unga rang bergan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bastakor va kompozitorning bir-biridan osmonu-yer qadar farqi bor. Afsuski, hali beri ko‘plab san’atkorlar buning asl, tub mohiyatini anglab ulgurgan emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Konstitutsiyaga “Mualliflik huquqi” kodeksining kiritilishi ham aynan ushbu maqom egalari uchun eng katta yutug‘lardan biridir. Xalqning ma’naviy saviyasini oshirish, yosh avlodni yuksak insoniy g‘oyalar, ona vatanga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida kamol toptirishda musiqa san’atining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 3-avgustda O‘zbekiston ijodkor ziyolilari bilan bo‘lgan uchrashuvda so‘zlagan ma‘ruzasida madaniyat, adabiyot va san’at sohasidagi boshqa masalalar qatori ana shu kamchiliklarga ham alohida e‘tibor qaratilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha muhim taklif va tashabbuslar ilgari surilgan edi. Davlat rahbari tomonidan ana shu vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida “O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaror imzolandi. Bir so‘z bilan aytganda, mazkur qaror O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini har tomonlama takomillashtirish, mamlakatda ushbu kasb egalari nisbatan bo‘lgan e‘tibor va qulayliklarni yanada oshirish bilan uzviy bog‘liqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.R.Yakubov. Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti. Ma‘ruzalar to‘plami.



2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat nashriyoti. Toshkent. 2002-y.
3. T.G‘ofurbekov. O‘zbek musiqa madaniyati. 2019-y.
4. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.
5. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG ‘U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
6. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O ‘ZBEK SAN’ATINING ZABARDAST HOFIZI JO ‘RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
7. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 494-498.
8. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O ‘ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 485-489.
9. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN’ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O ‘RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.
10. Achildiyeva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA " LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.
11. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4), 29-33.
12. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 87-89.
13. Xojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG ‘USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 265-275.
14. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(C4), 29-33.
15. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).





**16.** Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.

**17.** Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). РЕЙНГОЛЬД ГЛИЭР ВА ТОЛИБЖОН СОДИҚОВНИНГ «ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН» ОПЕРАСИДА МАҚОМ ЙЎЛЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ. *Science and innovation*, 1(С4), 23-28.

**18.** Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqom saboqlari:" Navo" maqomi xususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01), 55-58.

**19.** Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).

**20.** Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., & Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9), 17-20.

**21.** Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., & Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 302-308.

**22.** Achildieva, M., & Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF UZBEK MUSIC IN THE ART. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 90-93).

**23.** Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.

**24.** Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA" LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.

**25.** Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.